



DAVLAT MOLIYASINI ISLOH QILISHDA BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH JARAYONLARI

Xusainov Xusan Baratovich

bo'lim boshlig'i Ijro nazorati departamenti O'zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki Toshkent, O'zbekiston

x.xusainov@xb.uz

Tel: +99 895-850-34-56

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10829615>

Prognozlashtirish va rejalashtirish budjet jarayonining ilmiy asoslangan zarur komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Budjetni prognozlashtirish - bu asosiy budjet ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish, budjetning daromadlar va xarajatlar qismlarining rivojlanishi mumkin bo'lgan yo'llarini ehtimolli baholash majmuasidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda ham ko'rishimiz mumkinki budjetni prognozlashtirishga juda ham katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish to'g'risidagi Harakatlar strategiyasi"da ham davlat budjetini prognozlashtirish bo'yicha bir qancha ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan.¹

Prognozlashtirishning uch turi - uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozlashtirish mavjud. Uzoq muddatli prognozlar 5 yildan 10 yilgacha muddatga ishlab chiqiladi, ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalarni, o'rta muddatli istiqbolga

3 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga (har yili tuzatishlar kiritish bilan) mo'ljallangan prognozlar va dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Qisqa muddatli prognozlar moliya yiliga tuziladi. Budjetning rivojlanish prognozini ishlab chiqishda ekstrapolyatsiya, ekspert baholash, birlashtirilgan metodlardan foydalanilishi mumkin. Ekstrapolyatsiya metodi - avvalgi davrlardagi tajribalardan kelib chiqib istiqbolni belgilash. Bu metod nisbatan barqaror budjetning xarajatlar va daromadlari ba'zi bir moddalarini prognozlashtirishda qo'llanishi mumkin.

Ushbu maqolada davlat moliyasini isloh qilishda budjet daromadlarini prognozlashtirish va rejalashtirish jarayonlarini yoritishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz davlat moliyasida budjet daromadlarini prognozlashtirish va rejalashtirishda to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmoni, 07.02.2017-yil. № 6 (766).B.32-b.





aniqlash va tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Ekspert baholash metodi - bu ekspertlar (milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari etakchi mutaxassislari)ning baholari asosida tuziladigan prognozdir. Ushbu metodning kamchiligi - subyektivizm elementining mavjudligi.


Budjetni rejalashtirish - moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlatning moliyaviy siyosati talablariga bo'ysunadi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy funksiyasi markazlashgan rejalashtirish orqali yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliyaviy tizimning bug'inlari orasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umummilliy dasturini, budjetlarni va turli darajadagi budjetdan tashqari fondlarni tuzish va ijro etish jarayonida ishlab chiqishdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda budjetni rejalashtirish o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilgan.


Budjetni rejalashtirish jarayonida moliya mamlakat rivojlanishining davlat dasturlarini iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlariga hamda tabiiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni samarali ishlatish usullarini ajratib olishga faol ta'sir ko'rsatadi. Budjetni rejalashtirishning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- budjet masalalarini yagona huquqiy me'yorlari bilan boshqarish;
- budjet mablag'larini manzilli va maqsadli yunaltirish;
- yillik budjetni rejalashtirishning uzluksizligi;
- moliyaviy ko'rsatkichlarning barqarorligi;
- balans metodi.

Budjetni rejalashtirish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Budjetni rejalashtirish o'zida turli darajadagi budjetlarni tuzish jihatidan budjet jarayonini, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosini, shuningdek mamlakat budjetini tuzish nazariyasi va metodologiyasi masalalarini mujassamlashtiradi. Budjetni rejalashtirish asoslari mamlakat Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda budjet rejalashtirish jarayonida ham amalga oshiriliyaotga islohotlar natijasi o'laroq, o'rta muddatli budjet so'rovi qaroriga ko'ra budjet jarayoni rejalashtirish quyidagi rasmda ko'rsatilgan tartibda amalga oshirilmoqda.





Manba: 2019-2021 yillar uchun budjet so'rovini tuzish tartibi to'g'risidagi qaror ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Iqtisodiyotdagi bozor islohotlari budjetga tushumlarni prognozlashtirish metodologiyasi va metodikasini qayta ko'rib chiqish lozim. Budjet daromadlarini shakllantirish uch muhim yo'nalishni o'zida mujassamlashtiradi:


- jalb qilinayotgan barcha turdagi daromadlarning prognozlashtirilayotgan summasini hisob-kitob qilish;
- boshqariladigan daromadlarni budjet tizimining darajalari bo'yicha amalga oshiradi, u zarur axborot bazasiga ega va soliqlarning budjetga to'planishi holatini operativ kuzatib boradi;
- yuqori va quyi budjetlar o'rtasida moliyaviy yordam ko'rsatish (dotatsiyalar, subvensiyalar) va budjet ta'minotini tenglashtirish (transfertlar) borasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashtirish.

Mamlakatimiz o'rta muddatli budjet ijrosiga o'tilgandan, davlat budjetini prognozlashtirish ham xuddi shu tarzda amaliyotga taqdim qilinmoqda.

Halqaro amaliyotda quyidagi budjetni rejalashtirish metodlari farqlanadi:

- me'yoriy;
- "erishilgan chegaradan";
- dasturiy - maqsadli.

Me'yoriy metod budjet mablag'larida minimal ehtiyojlarni belgilashni nazarda tutadi. Me'yorlar qonun va qonun osti hujjatlari bilan belgilanadi. Majburiy me'yorlar hukumat yoki hududiy hukumat organi tomonidan; qo'shimcha me'yorlar - idoralar tomonidan; oddiy me'yorlar alohida turdagi xarajatlar uchun; yiriklashtirilgan me'yorlar - tashkilotning jami xarajatlari





uchun belgilanadi.

“Budjetni rejalashtirish me’yoriy metodining qo’llanilishi barcha turdagi budjet xarajatlari (ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar) bo’yicha katta hajmdagi moliyaviy va tabiiy xarajatlar me’yorini ishlab chiqishni talab etadi. Me’yoriy metoddan foydalanilganida budjet mablag’larini oluvchilarning o’z xizmatlari sifatini oshirish va uning tannarxini pasaytirishga rag’bati yuqoladi”.²

Budjetni rejalashtirishning “erishilgan chegaradan” metodidan budjet mablag’larining bosh tasarrufchisi, budjet mablag’larining tasarrufchilari va tashkilotlarning moliyalashtirish limitlarini belgilashda foydalaniladi. Bu metodda budjetdan moliyalashtirish hajmini aniqlash uchun mo’ljallab bo’lib budjet mablag’larini oluvchilarning avvalgi yildagi faoliyati ko’rsatkichlari xizmat qiladi.

Budjetni rejalashtirishning dasturiy-maqсадli metodi yoki dasturlar bo’yicha budjetni rejalashtirish (rejalashtirish, dasturlash va moliyalashtirish tizimi - planning programming and budgeting system - PPBS).

Dasturiy-maqсадli metod doirasida “zero” asosida rejalashtirish metodi (zerobase budgeting) ham farqlanadi. Rejalashtirish har qanday hukumat organining byudjega asosida moliyalashtirish mavjud emasligini qayd etishdan boshlanadi. Bu organning xarajatlari umumiy budjetga qo’shilgunga qadar, dasturni baholash va uni boshqa organlarning dasturlari bilan solishtirish amalga oshiriladi.

Daromadlar tushumini prognozlashtirish natijasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko’zda tutilgan budjetga va budjetdan tashqari fondlarga barcha tushumlarni to’liq shakllantiradi;

- hududlar va tushum manbalari kesimida haqiqiy daromadlar tushumi dinamikasi, shuningdek hududlar va tarmoqlar kesimida iqtisodiy ko’rsatkichlar dinamikasini statistik analiz qilish asosida soliq solinadigan bazani tartibga soladi;

- hududlar va barcha soliq turlari kesimida soliq to’lovlarni undirish darajasini tahlil qilish asosida soliq qarzdorligini qisqartirish chora-tadbirlarini ko’radi.

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budjet mo’ljallari to’g’risida”gi PQ-4086-sonli qarori. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 26.12.2018-yil





Davlat budjeti daromadlarini prognozlashtirishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishning sababi shundaki, davlat milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy agent sifatida o'zaro tovar va pul aylanmasida ishtirok etadi hamda davlat xarajatlari va shunga teng bo'lgan daromadlari YAIM tarkibiy qismi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmoni, 07.02.2017-yil. № 6 (766).B. 32-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida"gi
3. PQ-4086-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 26.12.2018-yil
4. U.O'.Pardaev Davlat budjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018-yil. 11-20-b.
5. Malikov T., Xaydarov N. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008-yil, 98-b.
6. Malikov T., Vahobov D., Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma.
7. T.: Iqtisod-moliya, 2010-yil, 660-b.

